



## ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-sentyabr

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,1 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,2 foizga ko'payishi Avtotransport vositalari savdosi,alkogolli ichimliklari va yirik shoxli qora mollarga aralash yem hashak talabning oshishi bilan izohlanadi

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (29,7 foiz), Beruniy (9,9 foiz), Turtkul (9,3 foiz), Xujayli (9,0 foiz) va Amudaryo (6,9foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4,0 foizga oshib, 1623,7 ming.so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-sentabr oylarida 1297,1 ming.so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Nukus shahri ( 2862,3 ming so`m) Qorauzak tumani (2393,6 ming so`m) Xujayli tumani (2257,6 ming so`m) va Taxtakupir tumanida (2181,8 ming so`m) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 93,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 10,1 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmdagi ovqatlanish korxonalarining ulushi 3,1 foizni tashkil qildi.

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1623,7</b>	<b>104,0</b>
Amudaryo	1079,5	102,9
Beruniy	1606,4	103,3
Qonlikul	1138,4	101,5
Qorauzak	2393,6	102,2
Kegeyli	1007,7	101,8
Qungirotd	1342,0	103,7
Muynoq	683,0	101,4
Nukus tumani	1105,3	99,1
Taxiatosh	1127,0	102,3
Taxtakupir	2181,8	102,4
Turtkul	1340,0	104,0
Xujayli	2257,6	104,1
Chimboy	1097,1	103,6
Shumanay	1373,5	102,6
Ellikqala	1108,9	101,1
shahar:		
Nukus shahri	2862,3	106,8

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 foizga o'sdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 83,5 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 192,7 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,4 foizni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: D.Qalnazarov

(0371) 230-82-06